O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari milliy markazi o‘rtasida inson huquqlari va erkinliklari himoyasini ta’minlash sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida

MEMORANDUM

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari milliy markazi, bundan keyin Tomonlar deb yuritiladi,

har bir Tomon O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlari doirasida harakat qilib,

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, shuningdek, inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan tamoyillari va normalariga asosan,

inson huquqlarini himoya qilish mexanizmini takomillashtirishga, demokratik asoslarni mustahkamlashga va inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish milliy tizimining ishlash samaradorligini oshirishga intilish,

ishda o‘zaro munosabatlarga bo‘lgan qiziqishni, shuningdek, inson huquqlariga rioya qilish sohasidagi muammolarni birgalikda hal qilishni hisobga olgan holda,

quyidagilarni kelishib oldilar:

1-modda

Tomonlar inson huquqlar va erkinliklari himoyasini ta’minlash sohasida O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilangan o‘z vakolatlari doirasida hamkorlik qiladi.

2-modda

Tomonlar inson huquqlar va erkinliklarini himoya qilish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlik qilishga kelishib oldilar:

inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning dolzarb masalalarini har tomonlama o‘rganish asosida ichki ishlar organlari faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha amaldagi qonunchilikni tahlil qilish;

ichki ishlar organlari xodimlari va aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, viktorinalar va inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha boshqa tadbirlarni tashkil etish;

qayta tayyorlash, malaka oshirish va amaliyot o‘tashning qo‘shma dasturlarini ishlab chiqish;

muntazam ravishda Tomonlar faoliyati, shuningdek, moddiy resurslar, jumladan adabiyotlar, standartlar, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning dolzarb talablari to‘g‘risida ma’lumot almashish;

inson huquqlari faoliyatining mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida birgalikda amaliy va tadqiqot ishlari, ilmiy-amaliy forumlar, konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari, treninglar tashkil etish va o‘tkazish;

qo‘shma tadbirlarda ilmiy xodimlarni, shuningdek, Tomonlarning mutaxassislarini jalb qilish;

inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha milliy va xorijiy milliy institutlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida bir -birini xabardor qilish;

himoya qilish masalalari bo‘yicha ikki tomonlama maslahatlashuvlar o‘tkazish va inson huquqlarini hurmat qilish;

inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha qo‘shma nashrlarni nashr etish hamda ularni tekin tarqatish;

Tomonlarning talabiga binoan statistik va tahliliy ma’lumotlarni taqdim etish;

amaliyotni takomillashtirish, xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirishga qaratilgan birgalikdagi tadbirlarni o‘tkazish;

inson huquqlari va erkinliklari buzilishining oldini olish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va davlat organlariga taqdim etish.

3-modda.

Yuqoridagilarga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi:

boshqa Tomonga ishlab chiqilayotgan qonun loyihalari, inson huquqlari sohasidagi tahliliy materiallar to‘g‘risida ma’lumot beradi;

inson huquqlari va erkinliklari sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasini oshirish bo‘yicha ichki ishlar organlari faoliyatini boshqa Tomon bilan birgalikda muvofiqlashtiradi;

boshqa Tomon bilan kelishgan holda, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ilmiy-ommabop adabiyotlar nashr etilishini tashkil qiladi;

boshqa Tomon ishtirokida inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha konferensiya, seminar va davra suhbatlari o‘tkazadi;

boshqa Tomon bilan birgalikda inson huquqlarini ta’minlash borasidagi xalqaro miqyosidagi muammoli masalalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining manfaatlarini samarali himoya qilish borasidagi takliflarini ishlab chiqadi;

inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarning bajarilishi to‘g‘risidagi Milliy hisobotlarni tayyorlashda ishtirok etadi;

boshqa Tomon tomonidan inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha o‘tkaziladigan konferensiya, seminar, davra suhbatlarida ishtirok etadi;

boshqa Tomon bilan birgalikda inson huquqlari masalalari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqadi.

4 -modda

O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari milliy markazi:

boshqa Tomon bilan birgalikda inson huquqlari to‘g‘risida Konstitutsiya va qonunlar, shuningdek xalqaro hujjatlar qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqadi;

boshqa Tomon taqdim etgan ma’lumotlarga asoslanib, inson huquqlariga rioya etilishi to‘g‘risida Milliy hisobotlarni tayyorlaydi;

boshqa Tomon ishtirokida inson huquqlari masalalari bo‘yicha konferensiya, seminar va davra suhbatlari o‘tkazadi;

boshqa Tomon bilan birgalikda inson huquqlarining turli jihatlari bilan bog‘liq masalalarga oid ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtiradi;

boshqa Tomon bilan inson huquqlari masalalari, xalqaro hujjatlar va boshqa materiallar bo‘yicha muntazam ma‘lumot almashishni amalga oshiradi;

boshqa Tomonni inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasida zamonaviy talablarga mos adabiyotlar, standartlar, shuningdek vizual axborot tashviqot matriallari kabi moddiy resurslar bilan ta’minlaydi.

5-modda.

Samarali hamkorlikni amalga oshirish uchun Tomonlar o‘z vakillaridan iborat ishchi guruhlar tuzishi mumkin.

6-modda.

Ahdlashuvchi Tomonlar inson huquqlarini ta’minlash va himoya qilishning barcha sohalarida, o‘z vakolatlari doirasida, o‘zaro kelishuv asosida hamda zarur bo‘lganda ularni qo‘shish, o‘zgartirish va muvofiqlashtirish huquqiga ega bo‘lgan qo‘shma yillik harakatlar rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali o‘zaro hamkorlikni kelishib oladilar.

7-modda.

Tomonlar ushbu Memorandumda belgilangan vazifalarni hal qilish va hamkorlikni amalga oshirishda doimiy ravishda o‘zaro yordam ko‘rsatishga majburdirlar.

8-modda.

Tomonlarning faoliyati ochiq tarzda amalga oshiriladi hamda vaqti-vaqti bilan Tomonlarning bosma nashrlarida, shuningdek boshqa ommaviy axborot vositalarida yoritiladi.

9-modda.

Memorandumni amalga oshirishda Tomonlar bir-biriga uzatiladigan ma’lumotlarning maxfiyligiga rioya qilinishini, Tomonning yozma roziligisiz, boshqa Tomondan olingan ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik yoki o‘tkazmaslikni ta’minlaydilar.

10-modda.

Tomonlarning o‘zaro kelishuvi bo‘yicha ushbu Memorandumga bayonnoma asosida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

Ahdlashuvchi Tomonlar o‘rtasida ushbu Memorandum qoidalarini talqin qilish yoki qo‘llash bo‘yicha kelib chiqadigan nizolar Tomonlar o‘rtasida muzokara yo‘li bilan hal qilinadi.

11-modda.

Mazkur Memorandum kuchga kirgan kundan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari milliy markazi bilan inson huquqlari va erkinliklari himoyasini ta’minlash sohasidagi hamkorligi to‘g‘risida 2008-yil 25-sentyabrdagi bitim o‘z kuchini yo‘qotadi.

12-modda.

Memorandum imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Basharti Tomonlardan biri Memorandum amal qilish muddatini tugatishi bo‘yicha ariza olgan kundan boshlab uch oy o‘tgach o‘z kuchini yo‘qotadi.

Memorandum 2021-yil “____” _____ kuni Toshkent shahrida, o‘zbek tilida tuzildi. Bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikkita nusxadan iborat.